

## **“DO’STLIK QANDAY BO’LISHI KERAK? “**

**Kamalova Mehriban**

*Samarqand davlat universiteti Kattaq'o'rgon filiali*

*Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti talabasi*

*Ilmiy rahbar: Murodova Muqaddas Ikromovna*

*Samarqand davlat universiteti Kattaq'o'rgon filalli o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Do'stlik bu-Oolloh tomonidan berilgan eng muqaddas tuyg'udir.Yaxshi va yomon kunda ham yonimizda turadigan,bizni o'zini yaqinidek ko'ra oladigan insondir.

**Kalit so'z:** do'stlik, tuyg'u,manfaat,hikoya.

### **Kirish :**

Do'stlik hech qanday manfaatlar ustiga qurilmasligi lozim.Do'stlik quyidagicha xislatlarga ega bo'lsin:

Avallo aqilli bo'lsin.Ahmoq bo'lsa uning suhbatidan va o'zidan ham foyda yo'q.Aksincha bu kishiga ham ahmoqligi ta'sir qiladi.Do'st yana xush fe'l va chiroyli muomilali bo'lishi lozim.Do'stlar odamni yaxshidan yomonga va hatto yomonni yaxshiga o'zgartirishi mumkin,eng muhimi baribir do'stlikdir.

Do'stlik tushunchasining mazmun mohiyati haqida donishmand kishilar olimu fozillar tomonidan ko'plab so'zlar aytilgan bo'lib ulardan ba'zilarini sizlar bilan baham ko'rmoqchiman.

### **Asosiy qism**

Haqiyqiy do'st shunday kishiki,u bilan birga bo'lsangiz,xuddi yolg'iz holda bo'lganingizdek o'zingizni betakalluf tutasiz.U qaysidir kamchililingiz tufayli sizdan yuz o'girib ketmaydi.Yig'ingiz uchun yig'laydi,shodligingiz uchun birga quvonadi.Uzringizni qabul qiladi,xatoyingizni kechiradi va yo'qligingizda ham sizga vafodorlikni saqlaydi,kam-ko'stingizni to'ldiradi.

Ehtimol,hayotingiz davomida shunday do'stni uchratarsiz, ehtimol uchratmassiz.Ammo bu dunyo bunday kishilardan xoli emas.Do'st bu biz uchun opa yoki singlimiz bola oladigan insonlardab biridir.Imom Shofeiy: "Agar dunyoda sodiq do'st bo'lmasa,bunday dunyoga alvido bo'lsin!" degan edilar.Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam)muborak bir hadislarida "Mo'min kishi do'st bo'ladi va do'st qilinadi.Na do'st bo'ladigan,na do'st qilinadigan insonda yaxshilik yo'q!" deganlar (Imom Ahmad va Bazzor rivoyatida).

Ona zamin faqat ma'lum mavsumlardagina meva bersa,do'stlik mevasi har lahzada teriladi.Hakimlardan biri do'stlikni shamsiyaga(zontik) mengzatadi.Yomg'ir kuchaygan sari soyabonga ehtiyoj ortganidek,musibat va mushkilot yomg'irlari

boshingiz uzra shiddatli tus olgani sari do'stlik shamsiyasiga ham ehtiyojingiz kuchayaveradi."Yomg'ir "da soyabon bo'limgan do'st dost emas.U shunchaki,tanishbilishlardan biridir.

Dunyoda abadiy bo'lgan narsalar ko'p emas.Zero,oltin,qimmatbaho taqinchoqlar,nafis liboslar,qimmatbaho mashinalar va uylar- bularning barchasi yolg'on,vaqtinchalik qadriyatlardir.Vaqt o'tishi bilan ular eskiradi,buziladi,yomonlashadi va moda bo'lishni to'xtatadi.

Ammo abadiy,haqiqiy qadriyatlar orasida uchta narsani nomlash mumkin.Bu imon,sevgi va do'stlik."Haqiqiy do'st eng katta xazinadir","haqiqiy do'st qiyinchilikda bilinadi"Siz va men bu maqollarni qanchalik tez-tez eshitamiz,lekin ularning asl ma'nosi haqida kamdan-kam o'ylaymiz.Bugungi kunda uni toppish qiyin .Ha, har birimizning ko'plab do'stlarimiz bor,ularni men mayin kapalaklari deb atayman.Ular sizlar bilan kino yoki kafega borishga,moda butiklarida pul sarflashga yoki hazildan kulishga yordam berishga tayyor.Ammo bu do'stlar sizni qiyin paytlarda hech qachon qo'llab-quvvatlamaydi.Sen haqingda hamma narsani biladigan,shu bilan birga seni yaxshi ko'radigan shaxs chin do'stdir.

Ba'zida "soni kam bo'lsa ham,sifatli do'stlarim bor"deb maqtanib yuramiz.Aslida shundaymi?Ha,ular yaxshi-yomon kunlarimizda yonimizda bo'lishga harakat qilishadi.Hatto o'z manfatidan do'stining manfaatini ustun ko'radiganlari ham yoq emas.Lekin ba'zan ularning yaxshiliklariga munosib javob qaytara olmasangiz,chin do'st deb o'ylagan kishingizning munosabati sal o'zgorganiga guvoh bo'lasiz.Asta-sekin unda o'zingizga yoqmaydigan holatlarni ilg'ay boshlaysiz.To'g'ri,u ham inson,doim yaxshi bo'lish imkonini hech birimizda yo'q.

Ikki do'st hikoyasi.Kunlarning birida ikki qalin do'st sahro uzra ketayotgan ekan.Bir payt ular bahslashib qolishibdi va biri qizishib ketib nohosdan ikkinchisining yuziga shapaloq tortib yuboribdi.Do'st o'griqni sezibdiyu hech nima demabdi.U sukul saqlab turib qumga shunday"Bugun mening eng yaqin do'stim menga tarsaki tushirdi"so'zlarni yozib ketibdi.Do'stlar churq etmasdan yo'lni davom etishibdi va bir necha kundan keyin bir ko'rakm vohaga yetib kelishibdi.Birodorlar ko'lda cho'milishga qaror qilishibdi.bir paytlar o'rtog'idan tarsaki yegan kishi sal bo'lmasa cho'kayotganida hamrohi uni qutqarib qolibdi.U hushiga kelganida toshga o'yib "Bugun mening eng yaqin o'rtog'im hayotimni saqlab qoldi"deb yozibdi.Shunda avvaliga shapaloq tortib,so'ngra hayotini asrab qolgan do'sti undan so'rabdi:  
-men seni dilingni og'ritganimda qumga yozgan eding,endi asta toshga naqsh solyabsan nega bunday qilding?

Ortog'i javob berdi

-bizni birov hafa qilganida ginani shamollar uchirib yuborishi uchun qumga yozishimiz kerak.Ammo kimdur bizga yaxshilik qilganida hech bir shamolda uchib ketmasligi uchun toshga o'yib bitishimiz lozim.

Ranj alamini qumga quvonchlarni toshga bitishni o'rganing va osuda umr keshirish uchun biroz vaqt qoldiring. Shunda hayot oson va yorqin ranglarda bo'ladi.

Bu hikoyani nega yozdim ?

Kimgadir hafa bo'lsak o'shani tez unitishimiz uchun ham balki qumga yozishimiz kerakdir.Inson yana unutuvchi zot shuning uchun ham kimnidir qilgan yaxshilagini eslab qolishimiz qiyin bo'lgani uchun toshga bitishimiz kerakligini aytayabdi.Yomonligini yashir yaxshilagini oshir deb ham bekorga aytishmaydi.

Bir do'stim bor jondan ham aziz

Yuzi doim kulib turadi

Unga hamma havasla boqar.

Uni shodlik yaxshi ko'radi,

Bir do'stim bor qalblari otash.

Muxabbatga to'lib yuradi.

Har lag'zasi doim baxtiyor,

Uni baxt ham yaxshi ko'radi.

Bir do'stim bor orzulari ko'p,

Orzusiga albat etadi.

Chunki unga doim madatkor,

Omad uni yaxshi ko'radi,

Do'slari ko'p atrofida jam,

Suxbatiga shoshib yuradi,

Bir men desam mendan-da

O'tib hayot uni yaxshi ko'radi.

### **Xulosa:**

Do'stlik haqida she'rlar juda ham ko'p bu ulardan ozgina parcha.Do'stlik-inson axloqining beباho go'zalligi,ijobiy fazilatlar gavhari.Insondagи barcha go'zal fazilatlar bir marvarid shodasi bo'lsa,uning dur-gavhari chin insoniy muhabbatga asoslangan do'stlikdir.Do'stlik tufayli xonadonimiz obod,dunyoda tinchlik va dasturxonimizda to'kinlik hukumron.Ota-onamizdan keyingi o'rinda bizni qo'llab-quvvatlaydigan suyanchiq bo'ladigan insonimiz bu do'stimizdir.Bizga har doim yordamini beradigan odam ham do'stimiz.Qayg'uli va quvonchli kunlarimiz birga o'tadigan va yoshlikdan birga o'ynab-o'sgan do'starimiz biz uchun opa-singildek bo'lib qolgan.Do'sti bor kishi hech qachon qayg'uda qolmaydi har doim uni eshitguvchi inson dardkashi bo'ladi .Shuning uchun ham dono kishilar hamma jamiyatda ham do'stlikning o'rni kata deb uni ulug'lab,qadrlab kelganlar va odamlarni do'st bo'lib yashashga do'st orttirishga undaganlar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Kenjaevna, R. N. (2022). THE ROLE OF DIALOGUE IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS'SPEAKING SKILLS IN FRENCH LESSONS AND THE ROLE OF MULTIMEDIA LESSONS AND INFORMATION TECHNOLOGY. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 8(3), 15-17.
- 2.Ruziyeva, N. (2022). ESPECIALLY THE WORDS THAT HAVE BEEN ADAPTED FROM FRENCH TO UZBEK. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫКА, ОБРАЗОВАНИЯ, ПЕРЕВОДА, 3(6).
- 3.Kenjaevna, R. N. (2022). LITERARY ANALYSIS OF “FATHERS AND CHILDREN”. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(4), 271-277.
- 4.Kenjaevna, R. N. (2023). USING GAMES AND FREE LANGUAGE LEARNING APPS IN FOREIGN LANGUAGE CLASSES THROUGH NEW INNOVATIVE APPROACHES TO FOREIGN LANGUAGE TEACHING. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(1), 304-308.
- 5.Kenjayevna, R. N. (2023). ABOUT THE WORDS ADOPTED FROM THE FRENCH LANGUAGE INTO THE UZBEK LANGUAGE. Science and innovation, 2(C4), 109-113.
- 6.Kenzhaevna, R. N., & Abdukhalkovna, M. K. (2023). Active and interactive methods of learning: review, classifications and examples. Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior, 14(2), 246-258.
- 7.Ikromovna, M. M. (2023). THE PRESENCE OF A PARADOX IN EVELYN WAUGH'S WORKS. Conferencea, 14-16.
- 8.Ikromovna, M. M. (2022). SATIRICAL APPROXIMATION USED IN ENGLISH LITERATURE. Conferencea, 90-95.
9. Ikromovna, M.M. (2023) Artistic features of Evelyn Waugh. Research and Education. 2 (4), 366-370.
10. Ikromovna, M.M. (2023) Ivlin Vo va Abdulla Qahhorning yozuvchilik mahorati Xorazm Ma'mun Akademiyasi Axborotnomasi 6 (4), 273-275
- 11 Ikromovna, M.M. (2023) Ingliz va o'zbek adabiyotida satira talqini Til va adabiyot ta'limi 5 (4), 116-117.
- 12.Ikromovna, M.M.,& Sh. U. Kosimov,& M. R. Rafiqova (2021) Implementation of the Technological Competence of Future Specialists. Creative Education, 12 (3), 666-677. <https://www.scirp.org/journal/ce> ISSN Online: 2151-4771 <https://doi.org/10.4236/ce.2021.123046>.
- 13.Ikromovna M.M., & Xolmurodova O., & Norinova M. LEARNING AND TEACHING ENGLISH (For Children and Adults) Conferencea, 57-59.
14. Ikromovna M.M., & Aminova M.Cultural diversity and information and communication impacts on language learning. Republic of Uzbekistan Ministry of

Emergency Situations academy Different approaches to ...Materials of scientific-practical conference. 1 (10), 61-63.

15.Ikromovna M.I. (2022) Abdulla Qahhor hikoyalari qahramonlaridagi umidsizlik. Integration of science, education and practice. Scientific-methodological journal, 146-150,2022.

16.Ikromovna M.M.(2022) Abdulla Qahhorning satirik qobiliyati. Science and Education 3 (6), 1557-1560.

17.Ikromovna M.M., (2022) Evelyn Waugh's satirical skills. Science and Education 3 (6), 1436-1440.

18.Ikromovna M.M. (2022) XX asr ingliz adabiyotida satira. Uchinchi renessans: ta'lim, tarbiya va pedagogika" mavzusida Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman. Noyabr, Toshkent-2022.